

**“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

SHAYMATOV SANJAR RUZIMUROTOVICH

**GRAVITACION RELYATIVISTIK NAZARIYALARIDA KOMPAKT
ASTROFIZIK OB'EKTLARNING EVOLYUTSIYASI VA DINAMIKASI**

01.04.02-Nazariy fizika

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2022

**Fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Content of the dissertation abstract of the doctor of science (DSc) on physical
and mathematical sciences**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора физико-математических наук (DSc)**

Shaymatov Sanjar Ruzimurotovich Gravitatsion relyativistik nazariyalarida kompakt astrofizik ob'ektlarning evolyutsiyasi va dinamikasi.....	3
Shaymatov Sanjar Ruzimurotovich Evolution and dynamics of compact astrophysical objects in relativistic theories of gravity.....	25
Шайматов Санжар Рузимуротович Эволюция и динамика компактных астрофизических объектов в релятивистских теориях гравитации	47
E'lon qilingan ishlar ro'uxati List of published works Список опубликованных работ.....	59

**“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

SHAYMATOV SANJAR RUZIMUROTOVICH

**GRAVITACION RELYATIVISTIK NAZARIYALARIDA KOMPAKT
ASTROFIZIK OB'EKTLARNING EVOLYUTSIYASI VA DINAMIKASI**

01.04.02-Nazariy fizika

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2022

Fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2022.3.DSc/FM196 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi fundamental va amaliy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ifar.uz) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Ahmedov Bobomurat Jo’raevich,
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Zaslavskii Oleg B. (V. N. Karazin nomidagi Kharkov Milliy Universiteti, Ukraina)
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Tawfik Abdel Nasser (Istiqbolli texnologiya va axborot universiteti, Qohira-Misr)
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Tursunov Arman Altayevich (Opavadagi fizika instituti, Sileziya universiteti, Chexiya Respublikasi)
fizika-matematika fanlari doktori

Yetakchi tashkilot:

Al-Farobiy nomidagi Qozog‘iston Milliy Universiteti, Almata, Qozog‘iston

Dissertatsiya “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 raqamli Ilmiy kengashning 2022-yil “_____” soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko‘chasi 39-uy, Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti, 108-katta majlislar zali; Tel.: (+99871) 237-09-61; e-mail: info@ifar.uz).

Dissertatsiya bilan “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko‘chasi, 39-uy, Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti, 108-katta majlislar zali. Тел. (+99871) 237-09-61.

Dissertatsiya avtoreferati 2022 yil « _____ » kuni tarqatildi.
(2022 yil “_____” dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

A.A. Abdujabbarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi o‘rinbosari f.-m.f.d.

E.X. Karimbayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi f.-m.f. bo‘yicha PhD

B.M. Narzilloev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash huzuridagi
ilmiy seminar raisi f.-m.f.d.

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.

Zamonaviy astronomik kuzatuvlar yordamida yaqin qo'shaloq sistemalardagi qora o'ralarning birlashishi natijasida gravitatsion to'lqinlarni aniqlash va M87 va Sgr A* galaktikalari markazida joylashgan o'ta massiv qora o'ra soyasining taxlili natijalari fazo-vaqt geometriyasining mohiyatini va kuchli maydon rejimida gravitatsion o'zaro ta'sir hodisasini juda oson tushuntirish imkonini bermoqda. Bu kabi zamonaviy kuzatuvlar tabiatda qora o'ralar mavjudligi bo'yicha nafaqat kuchli dalil sifatida balki qora o'ralar parametrlarini aniq o'lchash bilan bog'liq bo'lgan muamolarni tekshirishda muhim omil sifatida qaralmoqda. Lekin, bu faktga qaramay, hozirgi bevosita va bilvosita astronomik kuzatuvlar yuqori o'lchamdagi ($D > 4$) qora o'ralarning tabiati, shakllanishi va hosil bo'lishi kabi savollarga oydinlik kiritmadi. Shuningdek, Eynshteynning gravitatsiya nazariyasi cheklangan bo'lib, misol uchun qora o'ra markazida hosil bo'ladigan singulyarlikni tushuntirib berolmaydi. Bu esa umumiy nisbiylik nazariyasining kamchiliklaridan biri bo'lib qolmoqda. Umumiy nisbiylik nazariyasida, bu kabi ochiq savollar o'z navbatida yangi modellar va muqobil gravitatsion nazariyalarni talab qilishga olib keladi.

Respublikamizda keyingi yillarda relyativistik astrofizika sohasida eksperimental va fundamental tadqiqotlarni xalqaro darajada rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda ilm-fanni barcha yo'nalishlarini rivojlantirishda kuzatuv va nazariy tadqiqotlarni amalga oshirish qo'llab-quvvatlanmoqda. Ushbu tadqiqotlar relyativistik astrofizika sohasida muhim ahamiyat kasb etadi va 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida o'z aksini topgan. Natijada Respublikamizda yuqori va xalqaro miqyosda ilmiy tadqiqotlar olib borish orqali gravitatsion kompakt ob'ektlarning nazariy va relyativistik astrofizikasi rivojlanib borayotganligini ta'kidlash mumkin. Ayniqsa umumiy nisbiylik nazariyasining yangi jihatlarini/ta'sirlarini o'rganishda astrofizik qora o'ralarning optik va energetik xossalarini, ochiq singulyarlik va qora o'ra yechimlarini zarralarning dinamikasi orqali tekshirish yo'li bilan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuni ham ta'kidlash joizki, Respublikada relyativistik astrofizikaning rivojlanishi natijasida kompakt gravitatsion ob'ektlar tabiatining muhim jihatlarini o'rganish uchun olimlar tomonidan jiddiy vazifalar qo'yilganligi sababli mamlakatimizda shu soha bo'yicha yangi yo'nalishlar paydo bo'lib bormoqda.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti davlat normativ hujjatlarida va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PQ-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi", 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-sonli "Fanlar akademiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish, ilmiy ishlarni tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirish bo'yicha chora tadbirlar" va 2018 yil 29 noyabrdagi "2019-2021 yillarda O'zbekistonda tarkibiy islohotlarning asosiy yo'nalishlari bo'yicha yo'l-xaritasi to'g'risida"gi Qarorlari,

hamda ushbu sohadagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda tasdiqlangan vazifalariga mos keladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqot respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning II. «Energetika, energiya va resurs tejamkorligi» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi.

Turli xil gravitatsion modellarda qora o'raning shakllanishi va dinamikasini o'rganish va kuchli maydon rejimidagi tashqi maydonlar va zarralarning ta'ziri orqali qora o'ra hodisalar gorizontining barqarorligini tekshirish, qorong'u materiya maydonini qora o'ralarning dinamikasiga ta'sirini modellashtirish bo'yicha tadqiqotlar va qora o'ralarning energetik xosalarini o'rganish bo'yicha etakchi tadqiqot markazlari va muassasalari, ya'ni Maks Plank gravitatsion Fizika instituti (Germaniya), Frankfurt universiteti (Germaniya), Universitetlararo Astronomiya va Astrofizika markazi (Hindiston), Kaliforniya texnologiya instituti (CalTech, AQSh), Chikago universiteti (AQSh), Sharqiy O'rta er dengizi universiteti (Tukiya), Nazariy Fizika instituti (Xitoy), Fizika va yarimo'tkazgich fanlari ilmiy tadqiqot markazi (Koreya Respublikasi), Tata Fundamental tadqiqotlar instituti (Hindiston), Opavadagi Sileziya universiteti (Chexiya Respublikasi), Nazarboyev universiteti (Qozog'iston), Fudan universiteti (Xitoy), Ulug'bek nomidagi Astronomiya instituti (O'zbekiston) va Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti (O'zbekiston) va boshqalar tomonidan ilmiy taqadqiqotlar olib borilmoqda.

Qora o'ra evolyutsiyasida ikkita asosiy jarayon mavjud bo'lib, ya'ni moddalarning o'z tortishish maydoni ta'sirida gravitatsion kollapsi (markazga qulashi) va moddalarning mavjud bo'lgan gravitatsion markazga akkretsiyalanishi (to'planishi) hisoblanadi. Ikkala jarayonning ham ishlashi uchun zaruriy shart sifatida gravitatsion kollapsiga uchraydigan moddalarga yoki markzaga to'planiuvchi zarralarga ta'sir qiluvchi natijaviy kuch har doim tortishuvchi tabiatga ega bo'lish shart. Ma'lum bo'ldiki, bu odatiy to'rt o'lchamli fazoda aylanish momenti noldan farqli bo'lgan kollapsiga uchrovchi va markazga top'lanuvchi moddalar uchun har doim o'rinli bo'ladi. Agar to'rt o'lchamli fazoda natijaviy maydon har doim tortuvchi hususiyatga ega bo'lsa, u holda yuqori o'lchamli fazolarda natijaviy maydon qanday tabiatga ega ekanligini bilish muhim hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, qora o'ralarning yangi jihatlarini o'rganish muhim ahamiyat kesb etadi, ya'ni yuqori o'lchamlarda qora o'ralarning shakllanishi uchun bu ikkita jarayonning bajarilishini tekshirish muhim hisoblanadi. Agar bu ikkala jarayon ham aylanuvchi qora o'raning hosil bo'lishi uchun yuqori o'lchamli fazolarda ishlamasa ($D > 5$), natijada kosmik senzura hodisasi hatto zarralarning birinchi tartibli yaqinlashishi uchun ham o'rinli bo'lishini taxmin qilish mumkin. Bunday vaziyatda sof Lovelok gravitatsiya nazariyasi markaziy o'rinni egallashi va yuqorida aytib o'tilgan ikkala jarayon ham qora o'ralarning shakllanishi uchun ishlay olish yoki olmasligini yuqori o'lchamli fazolarda tekshirish imkoniyatini berishi mumkin.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Turli tadqiqot markazlari va institutlarining ko'plab olimlari tomonidan o'rganish darajasiga kelsak, Hind olimlari (N. Dadhich, P. Joshi, A. Mishra, S. Sarkar, M. Patil, R. Ghosh va boshqalar.), Yapon olimlari (I. Takahisa, H. Tomohiro, K. Masashi), italiyalik olimlar (K. Bambi, L. Modesto, D. Malafarina, O. Zanotti), Chex olimlari (Z. Stuchlik, M. Kolos, J. Schee, J. Kovar, V. Karas), nemis olimlari (K. Lemmerz, L. Rezzolla, J. Kunz, Ye. Hackmann, D. Kunst, V. Perlik), Xitoy olimlari (B. Chen, J. Jiang, B. Ge), Koreya Respublikasi olimlari (B. Gwak) va boshqalar gravitatsiyaning turli nazariyalarida kosmik senzura hodisasini tekshirib ko'rish orqali qora o'ralarning shakllanishi va qora o'ralar gorizontining barqarorligini o'rganish bo'yicha nazariy va kuzatuv tadqiqotlari o'tkazilgan. Biroq, bu muammolar Eynshteynning gravitasiya nazariyalarida ham, Lovelock nazariyasida ham yuqori o'lchamdagi $D > 4$ qora o'ralar uchun hali to'liq o'rganilmagan.

So'nggi tadqiqotlar va kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, zaryadlangan zarrachalarning harakati va AYAG dan chiqadigan zarracha oqimlari o'rtasida bog'liqlik mavjud. Shu munosabat bilan, ko'plab olimlar tomonidan turli vaziyatlarda keng tahlil ishlab chiqilgan, masalan, Hind (M. Wagh, S. Dhurandhar, N. Dadhich), Chex (Z. Stuchlik, M. Kolos va boshqalar), Ukraina (O. Zaslavskii), Italiya (D. Malafarina, Ye. Barausse), O'zbek (B. Ahmedov va boshqalar), Kanada (V. Frolov, va boshqalar.) va boshqa olimlar magnit maydonning qora o'ralar va akkretsiya disklardan energiya olish mexanizmlariga ta'siri o'rganilgan. Biroq, ushbu tadqiqotlarning hech biri magnit maydonning mavjudligi aksial simmetrik fazo vaqtini vujudga kelishiga sababchi bo'ladigan magnetlangan qora o'ra yechimini ko'rib chiqmagan.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertasiya tadqiqoti 2021-2022 yillar davomida Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti va Astronomiya instituti ilmiy-tadqiqotlar rejasining F-FA-2021-432 "Kichik massali rentgen binar sistemalari uchun sun'iy yo'ldoshlardan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va qayta ishlash" (2021–2026) ilmiy loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qora o'ra shakllanishining batafsil tavsifiga va uning yuqori o'lchamdagi $D > 4$ qora o'ra gorizontining barqarorligiga ta'siriga olib keladigan formalizmni ishlab chiqish, ideal qorong'u moddaning turli vaziyatlarda zarralar va qora o'ralar dinamikasiga ta'siri, ergosferaning kengayishi tufayli katta energiya manbai bo'la oladigan magnitlangan Raysner-Nordstrom qora o'rasining tabiati, shuningdek, olingan natijalarni galaktikalar markazlarida mavjud bo'lgan qorong'u moddaning taqsimotiga, qora o'ralarning muqobil modellarining ishonchlilik chegaralarini aniqlashga va astrofizik kuzatuvlarni tushuntirishda AYAGdan ajraladigan yuqori energiyani tavsiflashga qo'llashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

moddaning barqaror aylana orbitalarda gravitatsion ob'ekt atrofidagi harakati natijasida yuzaga keladigan akkretsiya jarayoni orqali yuqori o'lchamdagi aylanadigan qora o'ralarning shakllanishini o'rganish;

Eynshteyn Lovlok gravitasiyasida yuqori o'lchamdagi qora o'ralarning atrofidagi zarralarning barqaror aylana orbitalarini o'rganish; aylanadigan qora o'raning yuqori $D > 4$ va kichik $D < 4$ o'lchamlarda zarralarning chiziqli va nochiziqli ta'sirlari uchun overspin/ovircharj jarayonini o'rganish orqali kosmik senzura hodisasini tekshirishning umumiy formalizmini ishlab chiqish;

turli gravitasiya nazariyalarida qora o'ralar atrofidagi zarralar harakati dinamikasiga qorong'u moddaning ta'sirini o'rganish;

Sgr A* va M87 galaktikalari markazida ideal qorong'u moddaning taqsimlanishi orqali uning qiymatini hisoblash;

magnitlangan qora o'ra atrofidagi aksial-simmetrik fazo-vaqt geometriyasini o'rganish va neytral va zaryadlangan zarralar uchun Penrouz jarayonidan foydalangan holda energiya samaradorligini topish.

Tadqiqotning ob'ekti yuqori o'lchamlarda qora o'ralarning evolyutsiya jarayonlari, gravitatsiyaning turli nazariyalarida astrofizik qora o'ralar atrofidagi elektromagnit, gravittasion va qorong'u modda maydonlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti yuqori o'lchamlarda qora o'raning hosil bo'lishi, uning dinamikasi, shuningdek, qora o'ra gorizonti barqarorligini yuqori o'lchamlarda tekshirish, qorong'u moddaning kuzatuv ma'lumotlari bilan bog'liq astrofizik jarayonga ta'siri va aksial simmetrik magnitlangan qora o'raning fazo-vaqtida energiya samaradorligi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada umumiy nisbiylik nazariyasi va differensial geometriya affin metrikasining matematik apparatlaridan, zarralar dinamikasi va maydonlarining differentsial tenglamalarini echishning analitik va sonli usullaridan foydalanganmiz.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ilk bor yuqori o'lchamlarda qora o'ra hosil bo'lish jarayonlari o'rganildi; Eynshteynning gravitatsiya nazariyasida akkretsiya diskda barqaror aylana orbitalar mavjud bo'lmasligi va shuning uchun yuqori o'lchamlarda ($D > 4$) aylanuvchi qora o'ra hosil bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatilgan;

ilk bor aylanadigan qora o'ralarning yuqori o'lchamlarda ovirspin jarayonini o'rganish orqali, kosmik senzura hodisasini tekshirish uchun umumiy formalizm ishlab chiqildi; kosmik senzura hodisasi $D > 5$ o'lchamlarda har doim mavjud bo'lishi ko'rsatildi;

ilk bor ekstremal va ekstremalga yaqin (2+1) o'lchamli qora o'ralari Eynshteyn va Eynshteyn-Gaus-Bonet gravitasiya nazariyalarida ovircharj jarayoni bajarilishi mumkinligi ko'rsatildi, bu esa kosmik senzura hodisasini (2+1) o'lchamda buzulishiga olib keladi;

ilk bor ideal qorong'u moddaning zarralar harakati dinamikasiga, qora o'ralardan energiya ajralishi samaradorligiga, shuningdek qora o'ralarning dinamikasiga ta'sirini o'rganish orqali formalizm rivojlantirildi; uzoqdagi

kuzatuvchining nuqtai-nazaridan, vakumdagi Kerr qora o'rasini aylanish parametri katt bo'lgan va qorong'u modda hamda tashqi magnit maydonda joylashgan qora o'radan ajratish imkoni yo'qligi ko'rsatildi;

ilk bor ideal qorong'u modda va kosmologik doimiyning birgalikdagi ta'sirini o'rganish orqali formalizm taqdim etildi; RN-dS qora o'rasi uchun kosmologik doimiyning itarishish effekti qorong'u moddaning tortishish ta'siridan ustunlik qilishi mumkin bo'lgan ma'lum bir chegarasidan keyin uning gorizontini buzilishiga olib keladigan ovicharj jarayoni bajarilmasligi ko'rsatildi;

ilk bor aksial simmetrik magnitlangan qora o'rasi fazo-vaqtning geometriyasi va o'ziga xos xususiyatlari o'rganildi va Penrouz jarayoni orqali neytral va zaryadli zarralar uchun aksial simmetrik magnitlangan qora o'rasining magnit maydonini energiya ajralish samaradorligiga ta'siri ko'rsatildi; magnitlangan Raysner-Nordstrom qora o'rasi ham huddi Kerr qora o'rasi kabi katta energiya rezervuari bo'la olishi ko'rsatildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Eynshteynning gravitاسiyasida yuqori o'lchamlarda akkresion diskda barqaror aylana orbitalar hosil bo'lishi mumkin emasligi va shuning uchun $D > 4$ o'lchamlarda aylanadigan qora tuynuk hosil bo'lishi mumkin emasligi isbotlangan;

$D > 5$ bo'lganida barqaror aylana orbitalarning yo'qligi, aylanadigan qora o'ralar uchun overspin jarayoni hatto chizqli akkretsiya jarayoni ta'sirida ham sodir bo'lmasligi ko'rsatilgan;

qorong'u modda va magnit maydonning o'zaro ta'siri qora o'ra aylanish parametrini $a/M \approx 0.8$ qiymatiga qadar taqlid qilishi mumkinligi ko'rsatilgan; ishlab chiqilgan modelga assoslanib ideal qorong'u moddaning yuqori va quyi diapazonlari Sgr A* uchun $\lambda \sim (10^{-21} - 10^{-20})$ va M87 uchun esa $\lambda \sim (10^{-12} - 10^{-11})$ tartibida bo'lishligi topilgan;

ideal qorong'u moddaning tortishish ta'siridan kosmologik doimiyning itarish ta'siri ustunlik qiladigan aniq chegara qiymati uchun analitik ifodasi topilgan; bu qiymatidan katta qiymatlarda RN-dS qora o'rasi uchun ovircharj jarayoni sodir bo'lmasligi ko'rsatilgan va shuning uchun kosmik senzura hodisasiga qat'iy rioya qilinadi;

hatto neytral zarra uchun ham aksial simmetrik ekstremal magnitlangan Reissner-Nordstrom qora o'rasi ($Q = M$) holati uchun Penrouz jarayoni orqali olingan energyaning samarador qiymati ekstremal Kerr ($a = M$) qora o'rasinikidan ($\approx 20\%$) deyarli ikki baravar ($\approx 50\%$) kattaligi topildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya ishida zamonaviy raqamli usullar va dasturlar bilan bir qatorda umumiy nisbiylik nazariyasining standart usullari hamda matematik va nazariy fizika metodlaridan foydalanilganligi, olingan nazariy natijalar mavjud nazariy ma'lumotlar va zamonaviy astronomik kuzatuv hamda boshqa olimlarning ilmiy ishlari natijalari bilan ham tekshirilganligi va taqqoslanganligi va olingan natija xulosalari kuchli gravitatsion rejimida kompakt ob'ektlar maydon nazariyasining umumiy tamoyillariga mos kelishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Dissertatsiyadagi tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yuqori o'lchamdagi $D > 4$ qora o'ralarning yangi va o'ziga xos xususiyatlarini yaxshiroq tushunish maqsadida umumiy ma'lumot va kuchli matematik dalillarni to'plash uchun aylanuvchi qora o'ralarning shakllanish jarayonini tahlil qilish va zarralarning dinamikasi yordamida ularning ovirspin jarayonini o'rganish orqali kosmik senzura hodisasini tekshirish uchun formalizm ishlab chiqishdan iborat. Bundan tashqari, energiyali zarralar akkretsiyon diskidagi o'zaro to'qnashuvlar natijasida hosil bo'ladi va diskning yorqinligi uning atrofidagi fazo vaqtining asosiy geometriyasiga bog'liq bo'ladi. Lekin, haqiqiy vaziyatda ob'ektni vakuumda joylashgan deb hisoblash mumkin emas, chunki qorong'u modda taqsimoti galaktikalar markazida mavjudligi ma'lum. Shuningdek, magnit maydonlar qora o'ralar atrofida, ayniqsa ularning gorizontiga yaqin joylarda zaryadlangan zarralar dinamikasida muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun, akkretsiyon disk kuzatuvlaridan olingan xulosalarga ishonch hosil qilish uchun tashqi moddalar va magnit maydonlarining diskdagi zarralarga ta'sirini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyadagi tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, kuzatuv nuqtai nazaridan olingan natijalar akkretsiya diski chiqaradigan elektromagnit nurlanishni kuzatish natijasida ichki turg'un aylana orbitani (ITAO) aniqlash orqali manba aylanish parametrining aniq qiymatini topish etarli bo'lmasligi mumkin. Shuni ham ta'kidlash joizki, uzoqdagi kuzatuvchi vakuumdagi Kerr qora o'rasini kichikroq aylanish parametriga ega bo'lgan va qorong'u modda maydonida joylashgan qora o'radan hamda kattaroq aylanish parametriga ega magnitlangan qora o'radan butkul farqlay olmaydi. Shuning uchun, dissertatsiyadagi ushbu nazariy tadqiqotlar astrofizik kuzatuvlarni tushuntirishda qora tuynuklarga muqobil modellarning haqiqiylikini cheklashga imkon beradi. Shuningdek, qora moddning o'ta massiv qora o'ralar atrofidagi taqsimotini yuqori va quyi chegaralarini nazariy tahlili oraliq modalar bilan o'zaro ta'sirlashib olisdagi gravitatsion ob'ektlardan keladigan signallar orqali kuzatuv ma'lumotlarini ishlab chiqishda qorong'u modda maydonining tabiati va dinamikasini tahlil qilish va tekshirish uchun ishlatilishi mumkin. Aksial simmetrik magnitlangan qora o'rasidan ajralgan energiyaning samaradorligi bo'yicha olingan natijalar faol galaktik yadrolardan ajralib chiqayotgan ulkan energiyaga ega bo'lgan turli ko'rinishdagi oqimlar bilan bog'liq astronomik kuzatuv ma'lumotlarini tahlil qilishda foydali bo'lishi mumkin. Yuqori o'lchamdagi qora o'ralarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bilan bog'liq natijalar koinotda yuqori o'lchamlardagi aylanadigan qora o'ralar evolyutsiyasini tushuntirish va qabul qilingan model sifatida yangi metodlarni ishlab chiqish uchun ishlatilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Gravitasion relyativistik nazariyalarida kompakt astrofizik ob'ektlarning evolyutsiyasi va dinamikasini tadqiq qilish asosida:

yuqori o'lchamli ($D > 4$) Eynshteyn va sof Gauss-Bonnet aylanadigan qora o'ralar atrofidagi aylana orbitalar va qora o'ra hosil bo'lish jarayonlari bo'yicha

olingan nazariy tadqiqot natijalari va usullari Hindistondagi Universitetlararo Astronomiya va Astrofizika markazining grant qo'mitasi dasturlari doirasida (Hindistondagi Universitetlararo Astronomiya va Astrofizika markazi grant qo'mitasining 2022 yil 25 noyabrdagi ma'lumotnomasi) va bir qator xorijiy mualliflar (Physics of the Dark Universe, Vol. 35, id. 100916, 2022; Physical Review D, Vol. 105, id. 124033, 2022; Classical and Quantum Gravity, Vol. 38, id. 155017, 2021) tomonidan xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan analitik va sonli hisob-kitoblar orqali 4D EGB gravitatsiyasida aylanadigan va zaryadga ega qora o'ra atrofidagi foton harakati va uning soyasini o'rganish va statik EGB qora o'ralari atrofidagi turg'un chegaraviy orbitalarning xususiyatlarini tahlil qilish uchun qo'llanilgan;

qora o'ralarning yuqori ($D > 4$) va kichik ($2+1$) o'lchamlarda ovirspin va ovircharj jarayonlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar turli gravitatsiya modellarida qora o'ra gorizontining barqarorligini tekshirish bilan bog'liq bo'lgan turli modellarni ishlab chiqishda bir qator xorijiy tadqiqotchilar (Journal of Cosmology and Astroparticle Physics, Vol. 2022, id. 077, 2022; Physical Review Research, Vol. 4, id. 023031, 2022; The European Physical Journal C, Vol. 81, id. 1131, 2021; Physics of the Dark Universe, Vol. 32, id. 100831, 2021; Journal of High Energy Physics, Vol. 2021, id. 45, 2021; The European Physical Journal C, Vol. 81, id. 49, 2021) tomonidan foydalanilgan. Dissertatsiyada olingan natijalarning qo'llanilishi gravitatsiyaning boshqa modellarida qora o'ra gorizontining stabilligini tekshirishning fundamental nazariyalarini ishlab chiqish imkonini beradi;

ideal qorong'u moddaning tashqi magnit maydonda joylashgan statik qora o'ra atrofidagi zarralar harakatiga ta'siri va ideal qorong'u modda va kosmologik doimiyning birgalikdagi ta'sirini o'rganish bo'yicha olingan tadqiqot natijalari kvazperiodik tebranishlar manbai sifatida muntazam minimal bo'lmagan magnit qora o'ralarni, kichik zaryadlangan qorong'u modda komponentalarini qora o'ra soyasi orqali va xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan gravitatsiyaning turli modellarida ideal qorong'u modda maydonida joylashgan RN-AdS qora o'ralarning Joul-Tomson kengayish formalizmini ishlab chiqishda bir qator xorijiy tadqiqotchilar (Physics Letters B, Vol. 829, id. 137031, 2022; Journal of Cosmology and Astroparticle Physics, Vol. 2022, id. 077, 2022; Journal of Cosmology and Astroparticle Physics, Vol. 2021, id. 012, 2021; Physical Review D, Vol. 104, id. 084015, 2021; Journal of Cosmology and Astroparticle Physics, Vol. 2022, id. 043, 2022; Universe, Vol. 8, id. 369, 2022; Physical Review D, Vol. 103, id. 104070, 2021; Communications in Theoretical Physics, Vol. 73, id. 095403, 2021; The European Physical Journal C, Vol. 81, id. 269, 2021) tomonidan foydalanilgan;

aksial simmetrik magnitlangan qora o'ra fazo-vaqt geometriyasining o'ziga xos xususiyatlari va uning magnit maydonini astrofizik hodisalar va energiya ajralishi samaradorligiga ta'sirini aniqlashga bag'ishlangan nazariy natijalari Meksikadagi Michoakana Universitetining fizika va matematika institutining CF-MG-2558591 FORDECYT-PRONACES CONACYT raqamli granti doirasida

(Meksikdagi Michoakana Universitetining fizika va matematika instituti xati ilova qilinadi) va zaryadlangan zarrachalar dinamikasini nazariy jihatdan o'rganishni ishlab chiqishda kavant jihatdan statik qora o'ralar va magnitlangan Kerr va RN fazo vaqtlaridagi Faraday aylanishining gravitatsion analogi va boshqa sohalarda bir qator xorijiy tadqiqotchilar (Physical Review D, Vol. 105, id. 064072, 2022; International Journal of Modern Physics A, Vol. 37, id. 2250144, 2022; The European Physical Journal Plus, Vol. 137, id. 645, 2022; Universe, Vol. 8, id. 571, 2022; The European Physical Journal Plus, Vol. 136, id. 1032, 2021; The European Physical Journal C, Vol. 81, id. 983, 2021; Physical Review D, Vol. 104, id. 064016, 2021; Galaxies, Vol. 9, issue 4, id. 71, 2021; Galaxies, Vol. 9, id. 63, 2021) tomonidan ishlatilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot 3 ta halqaro va respublika ilmiy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ishlar chop qilingan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyaning doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 20 ta ilmiy maqola, shulardan 19 tasi xalqaro ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertasiyaning hajmi 218 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertasiyaning kirish qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbligi, ahamiyati keltirilgan, maqsadi va vazifalari aniqlangan, ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari ko'rsatilgan, olingan natijalarning ishonchliligi isbotlangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati borasida so'z yuritilgan, tadqiqot natijalari va dissertasiya tuzilishi berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "Yuqori o'lchamlarda qora o'raning shakllanishi va dinamikasi" deb nomlanib, mavjud tortishish markazida materiyaning to'planishini hisobga olgan holda qora o'ra hosil bo'lish jarayonlarini ko'rsatishga va yuqori o'lchamlarda aylanuvchi qora o'ralar atrofida chegaraviy yoki ichki barqaror aylana orbitalarning (IBAO) mavjud yoki yo'qligini ko'rsatishga bag'ishlangan.

Yuqori o'lchamlarda aylanadigan qora o'rani tavsiflovchi Myers-Perry yechimi mavjud bo'lib, uning fazo vaqti qo'yidagi ko'rinishda yoziladi

$$ds^2 = -dt^2 + r^2 d\beta^2 + \sum_{i=1}^n (r^2 + a_i^2)(d\mu_i^2 + \mu_i^2 d\phi_i^2) + \frac{\mu r}{\Pi F} (dt + \sum_{i=1}^n a_i \mu_i^2 d\phi_i)^2 + \frac{\Pi F}{\Delta} dr^2, \quad (1)$$

bu erda

$$F = 1 - \sum_{i=1}^n \frac{a_i^2 \mu_i^2}{r^2 + a_i^2}, \quad \Pi = \prod_{i=1}^n (r^2 + a_i^2), \quad \Delta = \Pi - 2\mu r^{2n-D+3}. \quad (2)$$

μ va a_i qora o'raning massasi va aylanish parameterlari, hamda μ_i va β parameterlar qo'yidagi ifodalar orqali bog'langan,

$$\sum_{i=1}^n \mu_i^2 + \beta^2 = 1, \text{ va } \sum_{i=1}^n \mu_i^2 = 1. \quad (3)$$

(3) tenglama mos ravishda juft $D = 2n + 2$ va toq $D = 2n + 1$ o'lchamlar uchun yozilgan va uning ikkinchi ifodasi $\beta = 0$ bo'lganda har doim o'rinli bo'ladi. Shuni ham ta'kidlash joizki, μ_i yo'nalish kosinuslari hisoblanib, misol uchun μ_1 va μ_2 $D = 5,6$ o'lchamli fazolarda qo'yidagi ifodalar orqali beriladi

$$\mu_1 = \sin\theta \quad \text{va} \quad \mu_2 = \cos\theta, \quad (4)$$

va

$$\mu_1 = \sin\theta, \quad \mu_2 = \cos\theta \sin\chi \quad \text{va} \quad \beta = \cos\theta \cos\chi. \quad (5)$$

Yuqori o'lchamli fazolarda, qora o'ra bir nechta aylanish parametriga ega bo'lishi mumkin, ya'ni yuqori o'lchamlarda qora o'ra ega bo'lish mumkin bo'lgan maximum aylanishlar soni $n = [(D - 1)/2]$ ga teng bo'lishi mumkin. Misol uchun, qora o'ra $D = 5,6$ o'lchamli fazolarda $n = 2$ aylanish parametriga ega bo'ladi.

Xususan, 5 va 6 o'lchamli fazolarni ko'rib chiqamiz va (i) nolga teng bo'lmagan aylanish momenti uchun effektiv potensial, $V_{eff} > 1$, har doim bajarilishini va (ii) u faqat maksimumga ega bo'lishini va shuning uchun hech qanday chagaraviy va barqaror aylana orbitalari hosil bo'lishi mumkin emasligini ko'rsatamiz. Vaqtsimon zarralarning qo'ra o'ra atrofidagi geodesik harakat qonuniyatlaridan foydalanib, effektiv potensialning umumiy ifodasini yozib olamiz. Natijada, bitta aylanish parametriga ega bo'lgan 5 va 6 olchamli qora o'raning ekvatorial teksligida harakatlanuvchi zarralar uchun effektiv potensail qo'yidagi ifoda orqali beriladi

$$V_{eff}(r) = -\frac{g_{t\phi}}{g_{\phi\phi}} \mathcal{L} + \sqrt{\frac{\Delta}{g_{\phi\phi}} \left(1 + \frac{\mathcal{L}^2}{g_{\phi\phi}}\right)}. \quad (6)$$

Bu yerda qo'yidagi ifodalardan foydalandik, ya'ni $\mathcal{E} = E/m$, $\mathcal{L} = L/m$ va $m^2 = 1$. (6) ifodadan $D = 5,6$ olchamli fazolar uchun effektiv potensial $V_{eff}(r)$ qo'yidagi ko'rinishda ifodalanadi:

$$V_{eff}^{5D}(r) = \frac{a\mu\mathcal{L}}{r^4 + (r^2 + \mu)a^2} + \frac{r(r^4 + (r^2 + \mu)a^2 + r^2\mathcal{L}^2)^{1/2}}{r^4 + (r^2 + \mu)a^2} \times (r^2 - \mu + a^2)^{1/2}, \quad (7)$$


$$V_{eff}^{6D}(r) = \frac{a\mu\mathcal{L}}{r^5 + (r^3 + \mu)a^2} + \frac{r(r^5 + (r^3 + \mu)a^2 + r^3\mathcal{L}^2)^{1/2}}{r^5 + (r^3 + \mu)a^2} \times (r^3 - \mu + a^2r)^{1/2}. \quad (8)$$

Katta masofalarda r , yuqoridagi ifodalar qo'yidagi ko'rinishga ega bo'ladi

$$V_{eff}^{5D}(r \rightarrow r_\infty) \sim 1 + \frac{(\mathcal{L}^2 - \mu)}{2r^2} + \mathcal{O}\left(\frac{1}{r^4}\right), \quad (9)$$

$$V_{eff}^{6D}(r \rightarrow r_\infty) \sim 1 + \frac{\mathcal{L}^2}{2r^2} - \frac{\mu}{2r^3} + \mathcal{O}\left(\frac{1}{r^4}\right),$$

bundan ko'rinadiki $D > 4$ holatda itaruvchi markazdan qochma komponenta gravitatsion tortishishdan har doim ustun bo'ladi. $\mathcal{L} = 0$ holatda, qo'ra o'ra aylanish parametrining ta'siri yo'qolishi sababli faqat tortishuvchi komponenta har doim ustivor bo'ladi.



1-rasm. $L = 4$ uchun effektiv potensial grafiklari: Yuqoridan 1, 2, va 3-grafiklar mos ravishda $D = 4, 5, 6$ o'lchamli holatlarni o'zida aks ettiradi. Vertikal uzun chiziqlar hodisalar gorizontini, vertikal nuqtali chiziqlar esa V_{eff} ning minimum vaziyatini ko'rsatadi.

1-rasmdan ma'lum bo'ldiki, $V_{eff} \geq 1$ har doim o'rinli bo'ladi. Har ikki $D = 5, 6$ haolatda ham $V_{eff} = 1$ cheksizlikda o'rinli bo'ladi, va u r kamayishi bilan oshib boradi va gorizontga qulashdan oldin o'zining maximumiga intiladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, effektiv potensial uchun gorizont yaqinida $V_{eff} \geq 1$ har doim o'rinli bo'ladi. Bu esa 4 o'lchamli fazoga nisbatan $V_{eff} \leq 1$ asosiy farq hisoblanadi. Bundan tashqari, $D = 6$ holatda $a \rightarrow \infty$ intilishi bilan, effektiv potensial ham $V_{eff} \rightarrow 1$ intiladi r ning barcha qiymatida. Shuning uchun a ning oshishi bilan maximum avval ko'tariladi va u o'zining $a \sim 1.3$ qiymatiga yetganida pastga qarab tushushni boshaydi. Shunday qilib, effektiv potensial faqat o'zining extrimumiga erishadi, yani maximumiga (1-rasmga qarang). Bu esa shuni anglatadiki, ya'ni u yerda hech qanday chegaraviy va barqaror aylana orbitalar paydo bo'lmasligini ko'rsatadi. Bu yuqori o'lchamdagi aylanuvchi qora o'ralar uchun zarrachalar harakatining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

1-rasmda effektiv potensialning $\mathcal{L} = 4$ va $D = 4, 5, 6$ uchun grafiklari olingan. Aylanish momenti nol bo'lganda, potensial katta masofalarda r effektiv potensial $1 - \mu/2r^{D-3}$ ko'rinishga ega bo'ladi, va shuning uchun har doim ≤ 1 bo'lishligi o'rinli bo'ladi. Ya'ni, qora o'ra aylanish parametrining ta'siri yo'qoladi va faqat

massasining ta'sir effekti qoladi. Demak, $D > 4$ da effektiv potensial gorizont yaqinadan boshqa joyda har doim bir birlikdan katta va faqat maksimumga ega bo'ladi. Bu esa barqaror aylana orbitalarni tutib turadigan yetarlicha potensial mavjud bo'lmasligini anglatadi. Shuning uchun, yuqori o'lchamlarda chagaraviy va barqaror aylana orbitalarning mavjud bo'lmasligi hayron qolarli hodisa bo'lmaydi. Bu esa yuqori o'lchamlarda akkretsiyaning jarayoniga o'z tasirini ko'rsatadi. Akkretsiya jarayoni akkretsiyon disk orqali amalga oshiriladi, bu jarayon esa sodir bo'lmaydi, chunki qora o'ra atrofida chagaraviy va barqaror aylana orbitalar mavjud emas. Bu yuqori o'lchamdagi aylanuvchi va aylanmaydigan qora o'ralar uchun ham amal qiladi. Akkretsiyon diskda dissipativ o'zaro ta'sirlar natijasida zarralar aylanish momentini yo'qotib qora o'ra markazi tomon $L < L_{ISCO}$ bilan spiral harakatini davom ettirishi mumkin. Yuqori o'lchamlarda esa akkretsiyon disk yuzaga kelishligi uchun barqaror orbitalar mavjud bo'lmaydi, provardida akkretsiya jarayoni vujudga kelmaydi. Shuning uchun, akkretsiya jarayoni yuqori o'lchamlarda aylanadigan qora o'ra hosil bo'lishida hech qanday rol o'ynamaydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "Qora o'ra gorizontining barqarorligini kichik $D < 4$ va yuqori $D > 4$ o'lchamlarda tekshirish" deb nomlanib, u kosmik senzura hodisasini yuqori $D > 4$ va kichik $D < 4$ o'lchamlarda zarraning chiziqli va nochiziqli ta'sirlari uchun ovespin va overcharj jarayonlarini o'rganish orqali unumiy formalizimini rivojlantirishga bag'ishlangan.

Eynshteyn va Eynshteyn-Gauss-Bonnet gravitatsiya nazariyalarida Martines, Teitelboim va Zanelli (MTZ) tomonidan olingan (2+1) o'lchovli zaryadlangan qora o'ra yechimi uchun kosmik senzura hodisasini mavjudlik shartini tekshiramiz. Bu uchun, Einstein-Hilbert-Maksvel tas'sir integrali qo'yidagi ko'rnishda bo'ladi:

$$S = \int d^3x \sqrt{-g} \left(\frac{R-2\Lambda}{16\pi} - \frac{1}{4} F_{\mu\nu} F^{\mu\nu} \right). \quad (10)$$

Bu eyerda $F_{\mu\nu}$ elektromagnit maydon tensori, R esa fazo vaqtining skalyar egriligi hisoblanadi. Zaryadlangan (2+1) o'lchamli MTZ qora o'ra yechimi qo'yidagi ko'rinishda yoziladi

$$ds^2 = -f(r)dt^2 + \frac{dr^2}{f(r)} + r^2 d\phi^2, \quad (11)$$

bu eyerda

$$f(r) = r^2 - M - \left(\frac{Q}{2}\right)^2 \ln(r^2), \quad (12)$$

M va Q esa qora o'raning massasi va elektr zaryadini tasvirlaydi. $f(r)$ funksiya $r_{\min} = Q/2$ da minimumga ega funksiya hisoblanadi. Bu funksiya o'zining minimumidagi qiymati esa qo'yidagi ifoda bilan beriladi

$$f(r_{\min}) = -M + \left(\frac{Q}{2}\right)^2 \left[1 - \ln\left(\frac{Q}{2}\right)^2\right]. \quad (13)$$

Yuqoridagi funksiya uchun qora o'ra fazo vaqtini xarakterlaydigan uchta holat bo'lishi mumkin: Agar $f(r_{\min}) = f(Q/2) < 0$ bo'lsa, $f(r)$ funksiyaning ikkita ildizi mavjud bo'lib qora o'raning tashqi r_+ va ichki r_- , gorizontlariga mos keladi. Agar $f(r_{\min}) = f(Q/2) = 0$ bo'lsa, u holda uning ikkita yechimi bir xil bo'ladi va bu extremal qora o'raga mos keladi. Agar $f(r_{\min}) = f(Q/2) > 0$

o'rinli bo'lsa, $f(r)$ funksiyaning haqiqiy yechimi bo'lmaydi, bu esa ochiq singulyar ob'ektga mos keladi. Qora o'ralarning extremal holati $f(Q/2) = 0$ ga to'g'ri keladi. $f(r_+) = 0$ ligidan, extremal qora o'ra uchun gorizont $r_+ = Q/2$ ga teng bo'ladi. Qora o'ra yechimi uchun qo'yidagi $f(r_{\min}) \leq 0$ shart talab qilinadi, bundan qo'yidagi ifoda kelib chiqadi

$$\delta \equiv M - \left(\frac{Q}{2}\right)^2 \left[1 - \ln\left(\frac{Q}{2}\right)^2\right] \geq 0. \quad (14)$$

(14) ifodadagi $(Q/2)^2[1 - \ln(Q/2)^2]$ funksiya zaryadning $Q = 0$ va $(Q/2)^2 = e$ qiymatlarida mavjud bo'lmaydi, lekin $(Q/2)^2 = 1$ (yoki $Q = 2$) qiymatida maximumga ega bo'ladi. Shuning uchun, $M > 1$ da, r_+ va r_- gorizonlari bo'lgan odatdagi qora o'raning mavjud bo'lishi uchun δ funksiya har doim noldan katta bo'ladi.

Extremal va extremal bo'lmagan MTZ qo'ra o'rasining gorizontini buzilishini ko'rsatdik. Bunga ishonch hosil qilish maqsadida, qora o'ra gorizontining stabilligini zaralarning nochiziqli ta'sirlari uchun ham tekshirib ko'ramiz. Ya'ni bu bobda, zarralarning ikkinchi tartibli perturbatsiyalarini e'tiborga olib MTZ qora o'ra goizontining stabilligini overcharging jarayoni orqali tekshiramiz. Yuqorida keltirilgan (14) ifodani yana bir marta yozib olamiz,

$$\delta \equiv M - \left(\frac{Q}{2}\right)^2 \left[1 - \ln\left(\frac{Q}{2}\right)^2\right].$$


$\delta > 0$ holatlar qora o'ra yechimini o'zida aks ettiradi, lekin $\delta < 0$ holatlar ochiq singulyar (gorizontsiz) ob'ektlarga mos keladi. $\delta(\lambda)$ funksiyani hatto ikkinch tartibli $\delta^2 E$ va $\delta^2 Q$ ta'sirlarni e'tiborga olganda ham manfiy bo'lishligini topdik. Shuning uchun, ikkinchi tartibli perturbatsiyalar ham extremal bo'lmagan qora o'ra gorizontining stabilligini saqlay olmaydi, yani uning gorizontini buzilishi muqarrardir. Bu esa (2+1) o'lchamli MTZ qora o'rasining tabiatini yaxhiroq o'rganishga imkon beradi, chunki uning gorizonti 4 o'lchamli fazodagi qora o'ra gorizontiga solishtirganda stabil emas. Bu $D < 4$ o'lchamdagi zaryadlangan MTZ qora o'rasinig o'ziga xos jihatidir. Yuqoridagi tahlillarni EGB gravitatsiya nazariyasidagi (2 + 1) o'lchamli BTZ qora o'rasi uchun ham tekshirdik. Tahlillar natijasi shuni ko'rsatdiki, extremal bo'lmagan BTZ qora o'ra gorizonti (2+1) MTZ qo'ra o'rasiga o'xshab stabil bo'lmaydi, ya'ni kosmik senzura hodisasini buzilishiga olib keladi.

Keyingi bosqichda kosmik senzura hodisasini yuqori o'chamli, $D > 4$, ($n - 1$) va n ta aylanish parametriga ega bo'lgan qora o'ralar uchun ham tekshirib ko'rdik. Ma'lum bo'lishicha, berilgan D o'lchamda ($n - 1$) ta aylanish parametriga ega bo'lgan qo'ra o'ra maximum aylanish soniga $n = [(D - 1)/2]$ ega bo'lgan qora o'ra tabiatidan tubdan farq qiladi. Bu holatni alodiha ko'rib chiqamiz. Yuqori o'lchamli aylanuvchi Myers-Perry qora o'rasining mos ravishda toq $D = 2n+1$ va juft $D = 2n+2$ o'lchamlardagi fazo vaqti elementlari (1) ifoda orqali beriladi. Qora o'raning gorizont radiusi toq va juft o'lchamlarda $\Delta = 0$ tenglama yordamida qo'yidagicha topiladi:

$$(r^2 + a_1^2) \dots (r^2 + a_i^2) - \mu r^2 = 0, \quad (15)$$

